



# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## ANDIJON VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI


**2023-YIL YANVAR-SENTABR**

# ANDIJON VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023-yilning 1-oktabr holatiga Andijon viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2 130 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 766 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 36,0 % Andijon shahrida joylashgan.

## 2023-yil 1-oktabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Andijon sh.	766
Xonobod sh.	42
Oltinko'l	116
Andijon	146
Baliqchi	71
Bo'ston	96
Buloqbo'shi	61
Jalaquduq	41
Izboskan	98
Ulug'nor	46
Qo'rg'ontepa	72
Asaka	190
Marhamat	84
Shahrixon	156
Paxtaobod	61
Xo'jaobod	84

1 171

Bino va inshootlar qurilishi

305

Fuqarolik obyektlarini qurish


654

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Shuningdek, Andijon shahrida 766 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 36,0 %), Shahrixon tumanida – 156 ta (7,3 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-sentabr uchun)

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, Andijon viloyatida jami 5 321,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil etdi.




*Maʼlumot uchun:* qurilish faoliyati – bu, oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



# 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyatida qurilish ishlari

Shahar va tumanlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati,  
mlrd. so'm va foizda




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida xususan, Andijon shahri (1868,1 mlrd. so'm), Andijon tuman (632,6 mlrd. so'm) va Shahrixon tumanida (372,1 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 73,7 % ulushni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,1 % ulushni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,2 % ulushni va 2022-yilning mos davriga nisbatan 194,6 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

# 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 71,7 % yoki 3 817,4 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**208,2**  
mlrd. soʻm

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 208,2 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

**5,4 %**

**2 278,3**  
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 2 278,3 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 59,7 % ni tashkil etdi.


**59,7 %**

**1 330,9**  
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 330,9 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,9 % ni tashkil etdi.

**34,9 %**

## Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



## 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

### Shahar va tumanlarning hajmi, mlrd. so'mda


	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta quollantirish	Ulushi, jamiga nisbatan % da
Andijon viloyati	3 817,4	100,0
Andijon sh.	1 274,6	33,4
Xonobod sh.	130,2	3,4
Oltinko'l	236,0	6,2
Andijon	374,6	9,8
Baliqchi	97,1	2,6
Bo'ston	171,9	4,5
Buloqboshi	63,3	1,7
Jalaquduq	102,9	2,7
Izboskan	110,8	2,9
Ulug'nor	76,9	2,0
Qo'rg'ontepa	196,2	5,2
Asaka	142,6	3,7
Marhamat	169,7	4,4
Shahrixon	294,8	7,7
Paxtaobod	199,2	5,2
Xo'jaobod	176,6	4,6

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahrida (1 274,6 mlrd. so'm), Andijon tumanida (374,6 mlrd. so'm), Shahrixon tumanida (294,8 mlrd. so'm) va Oltinko'l tumanida (236,0 mlrd. so'm) qayd etildi.

# 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo'yicha*

## Jami bino va inshootlarni qurish, *mlrd. so'm*



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,4 % ni tashkil etib, 2022-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022-yilning mos davriga nisbatan 3,2 % punktga kamayib, 63,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022-yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga kamayib, 33,9 % ni tashkil etdi.



## 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi


Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd. so'mda*



*Ma'lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Shahrixon tumanida bajarilgan qurilish ishlarining 82,0 %, Marhamat tumani (81,4 %) va Paxtaobod tumani (80,4 %) da kuzatildi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik  
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari  
*Korxonalar turlari bo'yicha*

Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd. so'm*




**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 11,8 % ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 88,2 % ni tashkil etdi.

# 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd. soʻmda*




*Maʼlumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinkoʻl tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 25,6 %), Xonobod shahrida (26,2 %) va Andijon tumanida (21,4 %)da kuzatildi.

# 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, *mlrd. so'm*




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,6 % punktga kamaydi va 1,4 % ni tashkil etdi.

Qolgan 98,6 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,6 % punktga ko'paydi.

## 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd. soʻmda*



*Maʼlumot uchun:* Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinkoʻl tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 14,4 %), Xonobod shahrida (13,7 %) va Boʻston tumanida (11,4 %) kuzatildi.

# 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**121,2 %**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**104,5 %**




Norasmiy sektor

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**100,4 %**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 208,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 121,2 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,5 % ga ko'payib, 3,9 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,8 % to'g'ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil etgan holda 3 782,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





## 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar


Shahar va tumanlarning o'sish sur'ati, hajmi, mlrd. so'mda



**Ma'lumot uchun:** ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (1 458,2 mlrd. so'm), Andijon tumanida (531,1 mlrd. so'm) va Shahrixon tumanida (298,9 mlrd. so'm) qayd etildi.

# 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 25,0 % ni yoki 1 330,9 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 100,4 % ni tashkil etdi. Shundan 1 126,3 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 49,6 mlrd. soʻmni va 60,7 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 155,0 mlrd. soʻmni va 107,2 % ni tashkil etdi.



## 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor


### Shahar va tumanlarning o'sish sur'ati, hajmi, mlrd. so'mda



**Ma'lumot uchun:** ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (250,0 mlrd. so'm), Asaka tumanida (125,8 mlrd. so'm) va Paxtaobod tumanida (161,7 mlrd. so'm) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

yanvar-sentabr oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 204,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 5 117,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,8 % va 96,2 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shahar (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %), Oltinko'l tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 97,7 %) va Paxtaobod tumanida (ushbu tumanidagi umumiy qurilish ishlarining 96,5 %) qayd etildi.

## **Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 74 224-80-00 (6020)**